

## YOSHLARNI SAN’ATGA CHORLAYMIZ

**Ziyodaxon Qobilova**

O‘zbekiston Davlat san’at va madaniyat instituti

Farg’ona mintaqaviy filiali jo‘rnavozi

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada muhtaram Prezidentimizning yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbusining birinchi yo‘nalishi, ya’ni musiqa madaniyatini musiqa maktablari va umumtalim maktablarida keng doirada shakllantirishga oid chora- tadbirlar ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** besh tashabbus, musiqa maktablari va umumtalim maktablaridagi musiqa darslari.

Har bir millat o‘z kelajak avlodida komillikni ko‘rishni orzu qiladi. O‘zbek xalqi o‘z madaniyati va ma’naviyatida komil insonlar tarbiyasiga alohida e’tibor bergan va bunday komillik darg’alarini yetishtirish har bir zamonda muhim sanalgan. Inson kamolotida esa jismoniy va ma’naviy go‘zallik muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois bugungi kunda yurtimizda zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega, mamlakatning munosib kelajagi uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga ola biladigan, intiluvchan va serg’ayrat yoshlarni tarbiyalashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada Muhtaram Prezidentimiz boshchiligida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlarga e’tiborni kuchaytirish, ularni madaniyat, san’at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish, yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni targ’ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga bag’ishlangan 5 ta tashabbusi ilgari surildi. Bir so‘z bilan aytganda, 5 ta tashabbus xalqimiz, ayniqsa,

yoshlarimiz tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi. Ushbu 5 tashabbusning mohiyatiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, har birining zamirida chuqur o‘ylangan ma’no va mazmun borligiga guvoh bo‘lamiz.

Jumladan, Birinchi tashabbus yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san’atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste’dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Xususan, birinchi tashabbus bo‘yicha yoshlarni madaniyat va san’at muassasalariga keng jalb etishga oid davlat dasturi loyihasi tayyorlangan. Yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san’atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste’dodini yuzaga chiqarish ijrosini tizimli tashkil etish, to‘garak va sinflarga qamrab olingan bolalarni rag‘batlantirish, jumladan, har xil tanlovlar o‘tkazish zarurligi maqsad qilindi. Tanlovlarda iqtidorli yoshlarni qo‘llab quvvatlash, iste’dodini nafaqat yurtimizda, balki dunyo miqyosida ko‘rsata olishi nazarda tutildi. Belgilangan qurilish, rekonstruksiya va kapital ta’mirlesh ishlari, shuningdek, madaniyat markazlari, musiqa va san’at maktablarini musiqa cholg‘ulari bilan ta’minlash uchun tegishli mablag‘ ajratish bo‘yicha topshiriq berilishi bu faoliyatning takomillashuvini yoshlar iqtidorini qo‘llab quvvatlashni ta’minlaydi. Madaniyat vazirligi va Xalq ta’limi vazirligiga hokimliklar bilan birgalikda tuman va shaharlarda madaniyat markazlari va umumta’lim maktablarida yoshlarning qiziqishidan kelib chiqib, qo‘shimcha 1,5 mingta to‘garak tashkil etish vazifasi qo‘yildi. Bepul to‘garaklar yoshlarimiz iqtidorini namoyon eta olishiga va ularning ijod namunalari dunyoga tanilishiga sabab bo‘ladi. Bundan tashqari tashabbuskor iste’dodli yoshlar va mahalliy homiylarni jalb etgan holda, madaniyat markazlarida badiiy-havaskorlik jamoalari, yoshlar teatr-studiyalari va “Yoshlar klublari” tashkil qilinishi yo‘lga qo‘yildi.

Bugungi kunda san’atning estetik qiymatga ega bo‘lgan sifatiiy xossalarini targ‘ib etish, badiiy ijod namunalari shaxs fenomenini shakllantiruvchi asosiy mezon ekanligini inobatga olgan holda, birinchi tashabbus, ya’ni yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san’atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga,

iste'dodini yuzaga chiqarish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilab olindi. San'at va badiiy ijod shaxs fenomenini shakllantiruvchi asosiy mezondir. Shunday ekan yoshlarda estetik ong, estetik did, estetik immunitet, estetik intellektni shakllantiruvchi, ma'naviy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan badiiy-estetik ijod namunalarining o'rnini alohida e'tirof etish zarur. San'at ham inson hayotida o'ziga xos estetik ahamiyat kasb etib, ijtimoiy hayotda inson faoliyatining, badiiy ijodning yakuni sifatida yuzaga keladi. Ammo har qanday badiiy asar ham san'at darajasiga ko'tarilmaydi, san'at darajasida baholanmaydi. Demak, badiiy ijod namunalarini san'at asari darajasiga ko'tarilishi uchun ham estetika qonuniyatlariga amal qilinishi muhimdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI: (REFERENCES)**

1. I. Nazarova. "Musiqaning yangi avlod tarbiyasidagi muhim ahamiyati va o'rni" mavzusida ( Uslubiy tavsiya)
2. I. Nazarova. "Amir Temurning musiqa san'atiga qo'shgan xissasi" mavzusidagi (Uslubiy qo'llanma)
3. Internet tarmoqlari.